

## XALQARO SHARTNOMAVIY ORGANLAR QARORLARINI AMALGA OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA QONUNCHILIK ASOSLARI

Ashurova Dinora Anvarqul qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

OAV huquqi mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19818649>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevralda qabul qilingan "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun orqali amalga oshirilgan huquqiy islohotlar doirasida xalqaro majburiyatlar bajarilish tizimidagi amaliy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, sud amaliyoti va ijro jarayonlarida xalqaro shartnomalar normalarini bevosita qo'llash, majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organlarning tizimli ishlashi, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka inkorporatsiya qilish hamda monitoring mexanizmlari bilan bog'liq kamchiliklar ajratib ko'rsatilgan. Bu bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida amaliy jihatdan amalga oshirish mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan, jumladan, xalqaro shartnomalarni bevosita qo'llash bo'yicha umumiy tushuncha, ijro amaliyotiga qo'shimcha qoida, monitoring, alohida kengash tuzilishi hamda xalqaro standartlarni inkorporatsiya qilish bo'yicha model ishlab chiqilishi taklif qilingan. Xulosada xalqaro majburiyatlar bajarilish tizimini birlashtiruvchi, yagona va shaffof mexanizm sifatida qurish zarurati ta'kidlangan taqdirda takliflarning amaliy tizimli xarakteri chuqurroq huquqiy-tashkiliy islohotlar uchun asos bo'lishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro shartnomalar, xalqaro majburiyatlar, xalqaro shartnomalarni bajarish, inkorporatsiya, sud amaliyoti, ijro amaliyoti, monitoring, kengash, majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organ, xalqaro standartlar, huquqiy islohotlar.

Ashurova Dinora Anvarqul qizi

Tashkent State University of Law

Master's student in Media Law

**Abstract.** This thesis analyzes practical problems in the implementation system of international obligations within the framework of the legal reforms carried out by the Law of the Republic of Uzbekistan "On international treaties" adopted on February 6, 2019. In particular, the shortcomings associated with the direct application of international treaty norms in judicial and enforcement practice, the lack of systematic operation of the bodies coordinating the fulfillment of obligations, the incorporation of international standards into national legislation, and the monitoring mechanisms are identified. Practical proposals are developed to address these gaps, including the elaboration of a general guideline on the direct application of international treaties, additional rules for enforcement proceedings, the establishment of a separate monitoring council, as well as the development of a model scheme for incorporating international standards into domestic law. In the conclusion, the necessity to construct a unified, coherent, and transparent mechanism for the implementation of international obligations as an integrated system is emphasized, and it is shown that the proposed measures, due to their systematic and practical nature, can serve as a basis for deeper legal and institutional reforms.

**Keywords:** International treaties, international obligations, implementation of international treaties, incorporation, judicial practice, enforcement of obligations, monitoring, council, coordinating body for implementation, international standards, legal reforms.

Zamonaviy xalqaro huquqiy tartibotda inson huquqlarini himoya qilish tizimi deklarativ xarakterdagi hujjatlardan natijadorlikka yo'naltirilgan amaliy mexanizmlar bosqichiga o'tdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyingi o'rinlarda BMT) shartnomaviy organlari tomonidan qabul qilinadigan qaror va tavsiyalar davlatlar uchun inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilish darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Biroq, ushbu qarorlarning milliy darajadagi ijrosi faqatgina siyosiy irodaga emas, balki mustahkam institutsional va qonunchilik asoslariga bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonni ilmiy tadqiq etish, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning vakolatlari va ularning qonun ijodkorligidagi ishtirokini optimallashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

2019-yil 6-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun<sup>1</sup>dan keyingi davrda davlat amaliyoti va tashqi siyosat sohasida bir qator sezilarli yutuqlarga erishildi.<sup>2</sup> Xususan:

➤ **Xalqaro shartnoma tizimini huquqiy ravishda birlashtirish.** Qonunda birinchi marta xalqaro shartnomalarning amaliy ahamiyatini o'rganish, ular matnlarini huquqiy, iqtisodiy, tilshunoslik nuqtai nazaridan va boshqa turdagi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha qoidalar belgilangani ularning sifatiga bo'lgan talabning kuchaytirilishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda, qonunda xalqaro aktlarning (ya'ni deklaratsiya, qo'shma bayonot, anglashuv memorandumlari va boshqalar) huquqiy holatiga ham aniqlik kiritildi. Hamda ushbu hujjatlarning qabul qilish tartibi soddalashtirildi. Bu turdagi hujjatlar hozirgi davrda mamlakatning xalqaro aloqalari faollashuvi sharoitida tezkorlik va moslashuvchanlikni ta'minlashga, davlatlar bilan dastlabki kelishuvlarga kechiktirmasdan erishishga imkon berdi.<sup>3</sup> Qonunning maqsadi xalqaro shartnomalar tuzish, bajarish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va ularni tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.<sup>4</sup>

➤ **Xalqaro majburiyatlar soni va ko'lami oshdi.** Oxirgi besh yil davomida xorijiy hamkorlar bilan 781 ta xalqaro hujjatlar imzolandi, shuningdek, O'zbekiston 26 ta universal xalqaro shartnomalarning a'zosiga aylandi. Ushbu xalqaro shartnomalar asosan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, soliq, mehnat, transport, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko'rsatish, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi sohalarga oiddir.<sup>5</sup> Shuningdek, O'zbekiston mazkur xalqaro institutlar doirasida qabul qilingan transport va logistika, intellektual mulk huquqi, mehnat huquqi, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko'rsatish, madaniyat sohasida universal va mintaqaviy ahamiyatdagi ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning ishtirokchisiga aylandi. Xususan, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi<sup>6</sup>, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik

<sup>1</sup> 2019-yil 6-fevralda qabul qilingan O'RQ-518-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/-4193761>

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy axborot agentligi [https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda\\_288376](https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda_288376)

<sup>3</sup> Zarnews <https://zarnews.uz/uz/post/harakatlar-strategiyasi-va-uni-yangi-ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatida-namoyon-bolishini-hayotning-oz-tasdiqladi>

<sup>4</sup> Ushbu qonunning 1-moddasiga qaralsin.

<sup>5</sup> O'zbekiston milliy axborot agentligi [https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda\\_288376](https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda_288376)

<sup>6</sup> Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi <https://lex.uz/uz/docs/-6656857>

huquqi bo'yicha konvensiyasi<sup>7</sup>, Xalqaro mehnat tashkilotining Xalqaro mehnat normalari qo'llanilishiga ko'maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to'g'risidagi 144-sonli konvensiyasi<sup>8</sup>, Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasi<sup>9</sup>, O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya<sup>10</sup>, YUNESKOning Madaniy ifodalarining turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi konvensiyasi<sup>11</sup>, Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi Istanbul konvensiyasi<sup>12</sup>, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya<sup>13</sup> kabi muhim shartnomalar shular jumlasidandir. 2019-yilda O'zbekiston turkiy tilli davlatlar bilan munosabatlarini yanada kengaytirish, ular bilan integratsiyalashuvni chuqurlashtirish maqsadida "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risida"gi Naxichevan bitimiga qo'shildi va Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi a'zosiga aylandi. O'zbekiston 2020-yilning 4-martidan boshlab Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasining teng huquqli a'zosi bo'ldi. O'z tarkibiga 84 ta davlat va Yevropa Ittifoqini birlashtirgan ushbu tashkilot xalqaro xususiy huquqni unifikatsiya<sup>14</sup> qilish masalalari bilan shug'ullanadi. O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi xalqaro fuqarolik, oilaviy va xususiy huquqning unifikatsiyasi jarayonida mamlakatimizning ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, kelajakda qabul qilinadigan xalqaro hujjatlarda milliy manfaatlarimizni ham aks ettirish imkonini yaratadi.

➤ **Xalqaro imidj va tashqi siyosatning faolligi.** Xalqaro shartnoma tizimini mustahkamlash davlatning "xavfsiz, shaffof, qonuniy hamkor" davlat sifatida xalqaro maydondagi imidjini shakllantirishda yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi<sup>15</sup>da (2020-yil 29-dekabr) davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilishi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini takomillashtirish yuzasidan Tashqi ishlar vazirligi tomonidan takliflar ishlab chiqilgan. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" va uni yangi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida namoyon bo'lishini hayotning o'zi tasdiqladi, xalqimiz tomonidan ma'qullandi va xalqaro hamjamiyat, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keng e'tirof etildi.

➤ **Xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka inkorporatsiya qilish<sup>16</sup> sohasida taraqqiyot.** Xalqaro shartnomalar bo'yicha qabul qilingan standartlar (masalan, mehnat, atrof-muhit, huquqiy yordam, ijro amaliyoti) yanada tizimli ravishda milliy qonunchilikga

<sup>7</sup> Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi bo'yicha konvensiyasi <https://lex.uz/docs/-2600169>

<sup>8</sup> Xalqaro mehnat tashkilotining Xalqaro mehnat normalari qo'llanilishiga ko'maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to'g'risidagi 144-sonli konvensiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-4224511>

<sup>9</sup> Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasi <https://lex.uz/docs/-4602568>

<sup>10</sup> O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya <https://lex.uz/docs/-4745488>

<sup>11</sup> YUNESKOning Madaniy ifodalarining turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi konvensiyasi <https://lex.uz/docs/-4655448>

<sup>12</sup> Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi Istanbul konvensiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-4912261>

<sup>13</sup> Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya <https://lex.uz/acts/-5501227>

<sup>14</sup> **Unifikatsiya** - har xil davlatlarning huquqiy me'yorlarini, hujjatlar tuzilishini yoki sud amaliyotini biron bir xalqaro standartga yoki boshqa davlatlarning qonunchiligiga yaqinlashtirish, "birlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 29-dekabr) <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

<sup>16</sup> **Inkorporatsiya qilish** - tashqi huquqiy manbani, masalan, xalqaro shartnomani milliy tizimga kiritish, qo'shib olish.

o'tkazilmoqda. BMT, ILO, ECHR bo'yicha qabul qilingan tavsiyalar va monitoring xabarlar asosida O'zbekiston qonunchilik va ijroiya tizimini o'zgartirish bo'yicha aniq ish-tadbir rejalari va qadamlar ketma-ketligi shakllantirilmogda.

Erishilgan va erishilinayotgan shuncha yutuqlarga qaramasdan, xalqaro huquqda bir qancha muammolar hal etilmay qolmoqda. Xalqaro huquqning eng dolzarb muammolaridan biri BMT shartnomaviy organlari, masalan, Inson huquqlari qo'mitasi, CEDAW (ya'ni Ayollarga qarshi barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya), CAT (Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomalaga qarshigi Konvensiya) va Yevropa Inson huquqlari sudi kabi institutlarning qarorlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilishdir. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 6-fevralda "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish orqali xalqaro majburiyatlarni bajarish tizimini isloh qildi. Ammo institutsional muvofiqlashtirish va sud amaliyotidagi bo'shliqlar saqlanib qoldi. Masalan xalqaro shartnomalar normalarini bevosita qo'llash bo'yicha aniq sud amaliyoti yo'q. Qonunda xalqaro shartnomalar O'zbekiston qonunchiligining tarkibiy qismidek e'lon qilingan, lekin zamonaviy sud amaliyotda "xalqaro shartnoma normasi - milliy qonun - individuallarga taalluqli shartnoma" aloqasini qanday hal etish bo'yicha aniq, tizimli amaliyot yaratilmagan. Ustiga ustak, fuqarolik va ijro amaliyoti bilan xalqaro majburiyatlar bajarilishi o'rtasidagi bog'lanish sekin, shartli. Sudlar majburiyatlarni bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik belgilashda xalqaro shartnomalar taraflarga qo'ygan majburiyatlar bilan qanday bog'lanishini yetarlicha aniq bayon etilmagan.

**“Muvofiqlashtiruvchi organ” instituti hali ham tizimli amaliyot bilan qoplamagan.**

Qonunda Tashqi ishlar vazirligining taklifi, prezident yoki Vazirlar Mahkamasining "majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organ"ni belgilashi nazarda tutilgan, lekin shu organlarning davriy hisobot berish, barcha tarmoqli organlarni nazorat va parlament-jamoatchilik nazoratini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari aniq emas.

Xalqaro sudlar yoki arbitrajlar qarorlarini ijro etish hamda ularni mahalliy huquq amaliyotiga moslashtirish jarayoni hamda sudlar amaliyoti o'rtasida "bo'shliq" saqlanmoqda. BMT, ECHR, YEXHT kabi tashkilotlar qarorlarini amalga oshirish bo'yicha sudlarning tizimli qo'llanmalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Xalqaro shartnomalarda belgilangan tavsiyalarning bajarilmaganligi bo'yicha jamoatchilik va parlament nazorati e'tiborli darajada ta'minlanmagan. Agar biror davlat organi xalqaro majburiyatni bajarishda kechikish yoki buzish sodir etsa, shu borada fuqarolik jamiyati, OAV va Milliy Kengash tomonidan qanday nazorat o'tkazish bo'yicha aniq huquqiy mexanizm hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Ushbu tezisning maqsadi - shartnomaviy organlar qarorlarini O'zbekistonda amalga oshirishning qonunchilik (Vena konvensiyasi, milliy Qonun) va institutsional (NHRC, Oliy Majlis, TIV) asoslarini tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir.

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash, odatda, ijtimoiy voqelik, ya'ni huquqiy mexanizm sifatida gavdalantiriladi. Bu, o'z navbatida, uning xalqaro huquq bilan o'ralgan murakkab huquqiy hodisa ekanligi faktidan kelib chiqadi. Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, huquqiy mexanizm deganda huquqiy tizimda keng tarqalgan va ijtimoiy munosabatlarga maxsus huquqiy ta'sir ko'rsatish bosqichida juda muhim ahamiyat kasb etadigan obyektiv ravishda mavjud bo'lgan tartibga soluvchi hodisalar jamlanmasi tushuniladi. Uning asosiy

jihatlari - huquqiy ta'sir ko'rsatishda harakatlanishi boshlanadigan obyektiv ravishda amalda bo'lgan hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Mazkur qarash tadqiqot doirasiga implementatsiya qilinadigan bo'lsa, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmi xalqaro platformada davlatlararo munosabatlar va davlatlar ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarga maxsus huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayonida fundamental rol o'ynaydigan obyektiv ravishda shakllangan tartibga soluvchi hodisalar birlashmasi ekanligi xulosa qilinadi. Davlatning asosiy maqsadlari va qonuniy manfaatlarining aksariyati aynan ma'lum huquqiy mexanizmlarning mavjudligi tufayli amalga oshadi. Qayd etish lozimki, huquqiy mexanizm - bu hali yetarli darajada o'rganilmagan ilmiy voqelikdir. Binobarin, xalqaro shartnomalarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan mexanizmga nisbatan ham mazkur izoh qo'llaniladi. Bunga davlatlar huquqiy tengligi hamda tashqi siyosati va manfaatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liq ekanligini asosiy sabab sifatida talqin qilish mumkin. Yuqoridagi qisqa va lo'nda tahlildan ko'rish mumkinki, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmi kompleks huquqiy hodisa o'laroq, bir qator tarkibiy tuzilmalardan iborat tuzilishga ega ekan. Bu, birinchi navbatda, uning mexanizm sifatidagi huquqiy tabiatidan hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni amalga oshirish sohasidagi yangi qonunchilik islohotlari - ayniqsa, 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun - xalqaro majburiyatlarni tizimli bajarish, davlat organlari orasidagi koordinatsiyani mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlik bo'yicha huquqiy asoslarni birlashtirish istiqbollari ochib yubordi. Shu bilan birga, amaliyotda institutionallik, sud amaliyoti, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka inkorporatsiya etish va nazorat-hisobot tizimlari bo'yicha aniq bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Bu bo'shliqlarni aniqlash faqatgina "tahlil qilish" emas, balki tizimli islohotlar loyihasini boshqarishning boshlang'ich qadamidir. Shu sababli, ushbu ishlab chiqilayotgan takliflar (1-jadvalga qaralsin) bir qator asosiy maqsadlarni qo'lga kiritishga qaratilgan:

- ✓ Xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilishini sud-davlat organlari darajasida aniq va shaffof ishlashini ta'minlah;
- ✓ Xalqaro standartlarni milliy qonunchilik hamda sud amaliyoti tarkibiga osonroq, mantiqiy jihatdan birlashtirilgan tarzda inkorporatsiya qilish mexanizmini yaratish;
- ✓ Davlat organlari, Milliy kengashlar, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati o'rtasida mustahkam monitoring tizimini ishlab chiqish;
- ✓ Xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda sodir bo'ladigan oqibatlarni aniq, huquqiy jihatdan asoslangan holda tartibga solish.

1-jadval.

No	Muammo	Taklif	Qisqacha bayon (nima uchun kerak?)
1	Xalqaro shartnomalar normalarini sud amaliyoti bevosita qo'llamaydi, yagona yoki aniq tushuncha yo'q.	"Xalqaro shartnomalarni bevosita qo'llash bo'yicha umumiy tushuncha" ishlab chiqish.	Bu taklif orqali sudlar uchun bitta yagona yonlama: "xalqaro shartnoma normasi - milliy qonun - individualllar" aloqasini

№	Muammo	Taklif	Qisqacha bayon (nima uchun kerak?)
			qanday hal etish bo'yicha aniq mezonlar beriladi.
2	Xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlar ijro amaliyoti bilan bog'lanmagan.	Ijro amaliyotiga xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatni bajarish bo'yicha alohida norma qo'shish (masalan, "Xalqaro shartnoma majburiyati ijro jarayonini amalga oshirish tartibi").	Taklif ijro amaliyotini nafaqat milliy qonunchilikka, balki xalqaro majburiyatlar hamda kengash qarorlari doirasiga ham moslashtiradi.
3	"Majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organ" tushunchasi bor, lekin uning ish-tartibi, monitoring tizimi va hisobot rejasi noaniq.	"Majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organ" uchun alohida "Nizom" va Monitoring-Kengash tuzilishini ishlab chiqish.	Taklif tashqiq ishlar, adliya, iqtisodiyot, mehnat, atrof-muhit va boshqa organlarni bir xil hisobot formati, monitoring gruppasi, yiliga ikki marta hisobot va jamoatchilik e'loni tartibiga keltiradi.
4	Xalqaro shartnomalar bo'yicha korrupsiyaga, inson huquqlari buzilishiga, ekologik standartlarga doir bo'shliqlar sud amaliyoti bilan bog'lanmagan.	Xalqaro shartnomalar bo'yicha "Monitoring-Kengash" (Milliy kengashlar, fuqarolik jamiyati, media, sud hamda Adliya Markazlari)" tashkil etish.	Taklif O'zbekistonning xalqaro imidjini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, inson huquqlari bo'yicha davlat hisobotlarini yaxshilash hamda sud amaliyoti orqali fuqarolik jamiyatini uzviy bog'laydi.
5	Xalqaro shartnomalarda belgilangan standartlarni milliy qonunchilikka inkorporatsiya qilish yetarli emas.	Xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka inkorporatsiya qilish bo'yicha alohida model ishlab chiqish.	Taklif BMT, ILO, ECHR kabi tashkilotlar qarorlarini milliy qonunchilik tizimiga aniq tushuncha, tartib hamda qonunchilikka inkorporatsiya qilish

№	Muammo	Taklif	Qisqacha bayon (nima uchun kerak?)
			usullari bo'yicha ilmiy-amaliy asos beradi.

Yuqorida tahlil qilingan bo'shliqlar va ularga berilgan takliflar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini samarali bajarish tizimini mustahkamlash jarayonining bir butunlikdagi tavsifi sifatida tushunilishi mumkin. Shu davrda, xalqaro shartnomalar nafaqat tashqi siyosat asosini, balki mamlakat ichki qonunchilik va sud amaliyotiga ham chuqur ta'sir qiluvchi manbaga aylandi. Shu bilan birga, xalqaro majburiyatlar sud amaliyoti bilan bevosita bog'lanmagan, ijro jarayonlari va monitoring tizimlari esa aniq tartibga ega bo'lmagan holat, xalqaro majburiyatlar bajarilishini sezilarli darajada qiyinlashtirardi.

Shu jihatdan ishlab chiqilgan takliflar, xalqaro shartnomalarni sud amaliyotida bevosita qo'llash bo'yicha umumiy tushuncha, ijro amaliyotiga xalqaro majburiyatlar bo'yicha alohida qo'shimcha, "majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtiruvchi organ" uchun Nizom ishlab chiqish, Monitoring tizimini joriy etish hamda alohida kengash faoliyatini tashkil etish davlat boshqaruvining aniq tizimlashtirilgan, yagona va shaffof me'yorlarga asoslanishi istiqbollarni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro shartnomalarni bajarish sohasidagi muammolarni bartaraf etish faqatgina qonunchilikka "tuzatish" kiritishdan iborat emas, balki milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashuvchan, shaffof va amaliy jihatdan samarali tizim sifatida shakllanishining muhim qismidir. Berilgan takliflar esa, xalqaro shartnomalarni amalga oshirish jarayonini nazorat qilish, uning sud, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi aloqasini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro imidjini yanada kuchaytirish maqsadida qo'yilgan tub, amaliy tizimli yechimlar sifatida ta'riflanishi lozim.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 29-dekabr). <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
2. Normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar:
3. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son. <https://lex.uz/docs/-4193761>
4. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr). O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 7-iyunda ratifikatsiya qilgan. <https://lex.uz/acts/-5501227>
5. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) <https://lex.uz/uz/docs/-6656857>
6. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi bo'yicha konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-2600169>
7. Xalqaro mehnat tashkilotining Xalqaro mehnat normalari qo'llanilishiga ko'maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to'g'risidagi 144-sonli konvensiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-4224511>

8. Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-4602568>
9. O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya. <https://lex.uz/docs/-4745488>
10. YUNESKO ning Madaniy ifodalarining turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-4655448>
11. Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi Istanbul konvensiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-4912261>
12. Internet resurslari va maqolalar:
13. O'zbekiston milliy axborot agentligi (UzA). Yangi O'zbekiston zamonaviy tashqi siyosatining xalqaro-huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. [https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda\\_288376](https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda_288376)
14. Zarnews.uz. Harakatlar strategiyasi va uni Yangi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida namoyon bo'lishini hayotning o'zi tasdiqladi. <https://zarnews.uz/uz/post/harakatlar-strategiyasi-va-uni-yangi-ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatida-namoyon-bolishini-hayotning-ozu-tasdiqladi>